

KUCHLI JAMIYAT QURISH MEZONLARI VA UNING IJTIMOYIY AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19366773>

Ibadullayev Sobirjon Mamatsoli o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti
Buxgalteriya hisobi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kuchli jamiyat tushunchasi, uni shakllantirishning asosiy mezonlari hamda jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Kuchli jamiyat qurishda inson omili, ta'lim darajasi, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy hamkorlik va iqtisodiy barqarorlik muhim rol o'ynashi yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyat rivojlanishida fuqarolarning faolligi, mas'uliyati va intizomi kuchli jamiyatni shakllantirishning muhim shartlaridan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar

jamiyat, kuchli jamiyat, ishonch, ta'lim, ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik faolligi, ijtimoiy hamkorlik, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik

Abstract

This article analyzes the concept of a strong society, the main criteria for its formation, and its social significance in the development of society. The role of the human factor, level of education, spiritual values, social cooperation, and economic stability in building a strong society is thoroughly examined. In addition, it is substantiated that citizens' activity, responsibility, and discipline are among the key factors in the formation of a strong society in the context of modern social development.

Keywords

society, strong society, trust, education, spiritual values, civic engagement, social cooperation, innovation, economic development, sustainable development, social stability

Аннотация

В данной статье анализируется понятие сильного общества, основные критерии его формирования, а также его социальное значение в развитии общества. Особое внимание уделяется роли человеческого фактора, уровня

образования, духовных ценностей, социального сотрудничества и экономической стабильности в построении сильного общества. Также обосновывается, что активность, ответственность и дисциплина граждан являются одними из важных условий формирования сильного общества в условиях современного социального развития.

Ключевые слова

общество, сильное общество, доверие, образование, духовные ценности, гражданская активность, социальное сотрудничество, инновации, экономическое развитие, устойчивое развитие, социальная стабильность.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan unda yashovchi insonlarning bilim darajasi, ijtimoiy faolligi, ishonch va mas'uliyatiga bog'liqdir. Har bir davlat o'z rivojlanish yo'lida barqaror va kuchli jamiyatni shakllantirishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaydi. Kuchli jamiyat nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan, balki ma'naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy jihatdan barqaror va fuqarolari faol bo'lgan jamiyatdir. Bunday jamiyatda inson huquqlari hurmat qilinadi, fuqarolar o'z majburiyatlarini anglaydi hamda jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shadi. Zamonaviy dunyoda global jarayonlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va iqtisodiy raqobat jamiyatlardan yanada mustahkam va barqaror bo'lishni talab qilmoqda. Shu sababli kuchli jamiyat qurish mezonlarini o'rganish, ularning ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kuchli jamiyat deganda, fuqarolari faol, ongli va mas'uliyatli bo'lgan, ijtimoiy hamkorlik rivojlangan hamda iqtisodiy va ma'naviy barqarorlik mavjud bo'lgan jamiyat tushuniladi. Bunday jamiyatda davlat va fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonch mavjud bo'ladi, qonun ustuvorligi ta'minlanadi va ijtimoiy adolat qaror topadi. Kuchli jamiyatning asosiy xususiyatlaridan biri - fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishidir. Shuningdek, kuchli jamiyatda ta'lim tizimi ham muhim o'rin tutadi. Ta'lim insonning dunyoqarashini kengaytiradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan malakali kadrlarni tayyorlaydi.

Asosiy qism. Kuchli jamiyatni shakllantirish bir qator muhim mezonlarga asoslanadi. Ushbu mezonlar jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bularning birinchisi - ishonch. Jamiyatdagi har bir odamning harakati ishonch ustiga qurilgan. Siz har kuni o'zingiz bilmagan holda yuzlab notanish insonlarga ishonasiz. Misol uchun, mashina haydayotganingizda boshqa haydovchilarning yo'l qoidalariga amal qilishiga, piyodalar tartibni buzmasligiga, yo'llar xavfsizligiga ishonasiz. Do'konda xarid qilganingizda mahsulot sifati va sotuvchining haloliligiga suyanasiz. Shu oddiy holatlar jamiyatdagi ishonch muhitining qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi va biz bu

ishonchni oqlamagan odamlarni jazolaymiz, ya'ni jarima yoki qamoqxonalar orqali. Chunki bu odamlar o'zlarining harakati orqali ishonchni oqlamadi va butun jamiyatga to'g'ridan-to'g'ri tahdid qildi. Bu kabi holatlarni bartaraf etish va kamaytirish uchun avvalambor qonun-qoidalarni o'z o'rnida ishlashini ta'minlashimiz zarur. Buning uchun mavjud qoidalarni takomillashtirish va uning ijrosini qat'iy ta'minlash ya'ni qoidalar hammaga birdek amal qilishiga erishish zarur.

Bundan tashqari, ta'lim darajasini yaxshilash va doimiy nazorat qilish eng muhim va ustuvor omillardan biridir. Zero, bilimli va malakali insonlar jamiyat rivojiga katta hissa qo'shadi va bu jamiyatda innovatsiya, ilmiy tadqiqotlar hamda texnologik taraqqiyot tezroq amalga oshadi. Bunga erishish uchun aholi o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish, maktab va universitetlarga oddiy qarash bilan emas, balki kelajakka bo'lgan umid va ishonch hissi bilan nazar tashlash lozim. Har bitta mavjud ta'lim dargohlarini doimiy tarzda yangi texnologiyalar va kerakli buyumlar bilan ta'minlab borish, har bitta tuman va mahallalarda kutubxonalar tashkil etish va aholini ilm olishiga qaratilgan tadbir-u tashabbuslar tashkil etib borish jamiyatimizni ko'proq ilm olishini ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, dunyoda rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim darajasi va malakali kadrlar sonining ortishi innovatsion loyihalar va texnologik yutuqlar bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan.

Kuchli jamiyat barpo qilishning yana bitta muhim omillaridan biri ma'naviy qadriyatlarga bog'liq. Halollik, mehnatsevarlik, totuvlik, o'zaro hurmat va birdamlik kabi qadriyatlar jamiyat barqarorligi va ishonchning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Ma'naviy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtiradi va insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Madaniy merosni qadrlash ham jamiyatning ruhiy barqarorligini ta'minlashda muhimdir. Tarixiy yodgorliklarni saqlash, milliy bayramlarni nishonlash va milliy urf-odatlarini asrash jamiyat a'zolarida o'zligini anglash va madaniy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarixiy shaxslar va ularning hayot yo'llari, ijodi, yozgan nodir asarlari haqida yaqindan tanishish o'zlikni anglash va tarixan kuchli va g'ururlanishga loyiq ajdodlari borligini bilish ham jamiyatni ruhan va ma'nan rivojlanishga o'z hissasini qo'shadi. Aholi o'rtasida ma'naviy qadriyatlarni, xususan halollik, o'zaro hurmat va birdamlik tamoyillarini keng targ'ib etish, ularni amaliyotga joriy qilish va ommalashtirish jamiyatning ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Sababi, jamiyat a'zolari ko'pincha ijtimoiy xulq-atvorni o'zaro kuzatish va taqlid qilish orqali shakllantiradi. Eng asosiysi, jamiyatdagi mashhur vakillar, katta miqdordagi

tomoshabinga ega ijtimoiy tarmoq faollar va aholi orasidagi ardoqli fuqarolar bu kabi ishlarni birinchi navbatda o'z zimmalariga olishlari lozim.

Fuqarolarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi kuchli jamiyat qurishning muhim mezonlaridan biridir. Saylovlarda qatnashish, jamoat ishlarida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fuqarolik faolligining muhim ko'rinishlaridir. Bunday faollik jamiyatda demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga, davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchning ortishiga xizmat qiladi. Masalan, fuqarolarning saylovlarda faol ishtirok etishi davlat boshqaruvida ularning bevosita ishtirokini ta'minlaydi va qabul qilinayotgan qarorlarning xalq manfaatlariga mos bo'lishiga zamin yaratadi. Jamoat ishlarida, xususan, mahalla darajasidagi tashabbuslarda ishtirok etish esa hududiy muammolarni tezkor va samarali hal etishga yordam beradi. Shuningdek, turli ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari va ekologik aksiyalarda qatnashish fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi hamda jamiyatda birdamlik muhitini shakllantiradi. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fuqarolik faolligi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy muammolar tezroq hal etiladi, davlat boshqaruvi samaradorligi ortadi va umumiy farovonlik darajasi yuqori bo'ladi. Shu bois fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish kuchli va barqaror jamiyatni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy rivojlanish jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Barqaror iqtisodiyot aholining turmush darajasini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va transport tizimlarining takomillashuviga xizmat qiladi. Misol uchun, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining kengayishi natijasida bandlik darajasi ortadi, aholi daromadlari ko'payadi va kambag'allik darajasi kamayadi. Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash esa iqtisodiy faollikni oshirib, yangi innovatsion g'oyalar va loyihalarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Iqtisodiy barqarorlik jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Aholining turli qatlamlari uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarning yaratilishi ijtimoiy ziddiyatlarning kamayishiga va jamiyatda barqaror muhitning shakllanishiga olib keladi. Masalan, Singapur tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qisqa vaqt ichida iqtisodiy jihatdan katta yutuqlarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda sanoat, xizmat ko'rsatish va moliya sohalarining jadal rivojlanishi natijasida aholi turmush darajasi sezilarli darajada oshgan. Kuchli iqtisodiyot hisobiga sifatli ta'lim tizimi, zamonaviy infratuzilma va samarali sog'liqni saqlash

tizimi shakllangan. Natijada jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, yuqori intizom va fuqarolik mas'uliyati rivojlangan. Bu esa iqtisodiy rivojlanish va kuchli jamiyat o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Kuchli jamiyat qurish mamlakat taraqqiyotida juda muhim rol o'ynaydi. Bunday jamiyatda insonlar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila oladi, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlik mustahkamlanadi. Kuchli jamiyat iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bilimli va faol insonlar yangi g'oyalar yaratadi, innovatsiyalarni rivojlantiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, kuchli jamiyatda ijtimoiy tenglik, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari mustahkam bo'ladi. Bundan tashqari, kuchli jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch yuqori bo'ladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy muhitning sog'lom bo'lishiga yordam beradi. O'zaro hurmat va hamkorlik jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning o'rnini ham muhimdir. Yoshlar bilimli, faol va tashabbuskor bo'lsa, jamiyat rivoji tezlashadi. Shu sababli yoshlarning ta'lim olishi, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi va ijtimoiy hayotda faol bo'lishi kuchli jamiyatni shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kuchli jamiyat qurish – bu ta'lim, ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik faolligi hamda iqtisodiy barqarorlik uyg'unligida shakllanadigan murakkab va uzluksiz jarayondir. Jamiyatdagi o'zaro ishonch, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatning ta'minlanishi uning barqaror rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bilimli, mas'uliyatli va tashabbuskor fuqarolarning mavjudligi jamiyat taraqqiyotini jadallashtiradi hamda innovatsion rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi. Ma'naviy qadriyatlarning mustahkamligi esa jamiyatda hamjihatlik va totuvlikni ta'minlaydi. Shu bois har bir fuqaro o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirib, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi zarur. Faqatgina shunday yondashuv orqali barqaror, taraqqiy etgan va kuchli jamiyatni barpo etish mumkin bo'ladi. Natijada, kuchli jamiyatni shakllantirish davlat va fuqarolarning o'zaro hamkorligi hamda mas'uliyatli yondashuvini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
3. Islomov Z. *Fuqarolik jamiyati asoslari*. Toshkent, 2015.
4. Sciencedirect.com